

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki
faoliyatida yuzaga kelgan muhim faktlar

02.07.2024 y.

EMITENTNING NOMI							
1.	To'liq:	O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki					
	Qisqartirilgan:	Xalq banki					
	Birja tikerining nomi:	XBBK (UZ7055620007)					
ALOQA MA'LUMOTLARI							
2.	Joylashgan yeri:	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Qatortol ko'chasi, 46.					
	Pochta manzili:	O'zbekiston Respublikasi, 100096, Toshkent sh., Qatortol ko'chasi, 46.					
	Elektron pochta manzili:	info@xb.uz					
	Rasmiy veb-sayti:	www.xb.uz					
MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT							
Muhim faktning raqami:		06					
Muhim faktning nomi:		Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar					
Umumiy yig'ilish turi:		Umumiy yig'ilish					
Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi:		28.06.2024					
Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana:		02.07.2024					
Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy:		Toshkent shahar, Qatortol ko'chasi, 46-uy.					
Umumiy yig'ilish kvorumi:		100,0%					
T/r	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
1	Aksiyadorlar umumiy yig'ilishning reglamenti va Sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
2	Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvning yillik hisoboti hamda rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini eshitish;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
3	Tashqi auditorlik tashkilotining 2023-yil yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish, shuningdek, bankning yillik va moliyaviy hisobotlarini tasdiqlash;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
4	Bankning tashkiliy tuzilmasini yangi tahrirda tasdiqlash;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0

5	Bank Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
6	Bankning 2023-yil faoliyati yakuni bo'yicha foydasi (yoki zarari)ni taqsimlash;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
7	Bank Boshqaruvi raisini saylash (tayinlash);	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
8	Bankning 2024-yil uchun Samaradorlikni baholash ko'rsatkichi (KPI)ni va yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni qo'llash tartibi"ni tasdiqlash;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
9	Bankning 2023-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko'rib chiqish;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
10	Bankda 2024-yil ish faoliyati yakunlari bo'yicha auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
11	"O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirishlar"ni tasdiqlash;	100%	7 760 308 144	0	0	0	0
12	"O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoli uchun tanlov o'tkazish va nomzodlarni tanlab olish to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash.	100%	7 760 308 144	0	0	0	0

3.

Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'liq bayoni:

1	<p>1. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida kun tartibidagi ovozlarni hisoblash uchun Sanoq komissiyasining quyidagi yangi tarkibi bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishiga qadar tasdiqlansin:</p> <p>1.1. Sh. Sharapov – Korporativ boshqaruv xizmati Bo'lim boshlig'i;</p> <p>1.2. I. Usarov – Yuridik departamenti Bo'lim boshlig'i;</p> <p>1.3. D. Omonov – Korporativ boshqaruv xizmati Bo'lim boshlig'i.</p> <p>2. Umumiy yig'ilishni o'tkazishda, kun tartibidagi masala bo'yicha so'zga chiqish va uni muhokama qilish uchun yig'ilish Reglamenti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.</p> <p>Bunda:</p> <p>kun tartibidagi masala bo'yicha so'zga chiqish uchun – 20 daqiqa;</p> <p>kun tartibidagi masalani muhokama qilish uchun – 20 daqiqa;</p> <p>Sanoq komissiyasiga ovozlarni hisoblash uchun – 10 daqiqa vaqt ajratilsin.</p>
2	<p>1. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvning yillik hisoboti hamda rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin va tasdiqlansin (2, 3 va 4-ilovalar).</p> <p>2. Bank Boshqaruvi zimmasiga, 2023-2025 yillarga mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasi reja ko'rsatkichlariga erishish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni davom ettirish vazifasi yuklatilsin.</p> <p>3. Kuzatuv kengashi zimmasiga, mazkur qaror ijrosini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.</p>
3	Bankning Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) asosidagi "Ernst & Young" MCHJ tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan auditdan o'tkazilgan bankning 2023-yil yakunlari bo'yicha konsolidatsiyalashgan hisoboti, yillik va moliyaviy hisobotlari tasdiqlansin (5, 6 va 7- ilovalar).
4	Bankning yangi tashkiliy tuzilmasi 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5	<p>1. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari T. Ishmetov, K. Naseem, S. Zaynutdinov va D. Ibragimovlar Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqarilsin.</p> <p>2. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagi tarkibda uch yil muddatga saylansin: Xolmurodov Nozimjon Qosimovich – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, vazirning birinchi o'rinbosari (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakili); Fazilkarimov Otabek Rustamovich – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, vazir o'rinbosari (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakili); Pulatov Alimirzo Xaydarovich– O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, bosh mutaxassisi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakili); - Alexander Picker – mustaqil a'zo; - Ekaterina Trofimova – mustaqil a'zo; - Taron Ganjalyan – mustaqil a'zo; - Rojer J Tomson – mustaqil a'zo.</p> <p>3. Kuzatuv kengashi tarkibiga yangi saylangan a'zolar o'z vazifalariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgandan so'ng kirishishi belgilansin.</p>
6	<p>Bank Kuzatuv kengashining 2023-yil faoliyati yakuni bo'yicha foydasi (yoki zarari)ni taqsimlamaslik to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin va tasdiqlansin (9-ilova).</p>
7	<p>1. Atabayev Shuhrat Xalidarovich O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruvi raisi etib uch yil muddatga saylansin (tayinlansin).</p> <p>2. Atabayev Shuhrat Xalidarovich bilan tuziladigan shartnomani imzolash vakolati - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari O.R. Fazilkarimovga berilsin.</p>
8	<p>1. Bank Kuzatuv kengashining 2024-yil 4-iyundagi 11-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan bankning 2024-yil uchun samaradorlikni baholash ko'rsatkichi (KPI) ma'lumot uchun qabul qilinsin (12-ilova).</p> <p>2. Yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni qo'llash tartibi" tasdiqlansin (13-ilova).</p> <p>3. Bank Boshqaruvi zimmasiga: 2024-yil uchun Samaradorlikni baholash ko'rsatkichi (KPI) oz vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash; bank faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichi (KPI) bajarilishi bo'yicha choraklik hisobotlarni Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritib borish vazifalari yuklatilsin.</p>
9	<p>1. Bankning 2023-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari qabul qilinsin (14-ilova).</p> <p>2. Bank Boshqaruvi zimmasiga, Kuzatuv kengashi tavsiyalari va ilg'or xorijiy tajribalar asosida bankda korporativ boshqaruv tizimini yanada yaxshilash choralarini ko'rish vazifasi yuklatilsin.</p>
10	<p>1. Bankda 2023-yil yakunlari bo'yicha majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun "Ernst & Young" MCHJ tashqi auditorlik tashkiloti tanlansin va uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori 4 739 574 461 so'm (12 foiz QQS - 507,8 mln bilan birgalikda) etib belgilansin hamda amaldagi qonunchilikda belgilangan talablar asosida u bilan tegishli shartnoma tuzilishi tasdiqlansin.</p>
11	<p>1. "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirishlar" 16-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.</p> <p>2. Bank Boshqaruvi zimmasiga, bank Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirishlarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan ro'yxatdan o'tkazish vazifasi yuklatilsin.</p>
12	<p>"O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoliigi uchun tanlov o'tkazish va nomzodlarni tanlab olish to'g'risida"gi Nizom 17-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.</p>
<p>Ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarning matni</p>	

-